

**“SHUM BOLA” QISSASIDAGI DIALOGLARNING BADIY TAHLILI***Nartosheva Mukaddas Voxid qizi**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi I-bosqich talabasi**Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li**Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi assistenti*

**Annotatsiya.** Maqolada tilshunoslik doirasida o‘rganiladigan dialogik nutqning qo‘llanilish doirasi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari misolida ko‘rib o‘tildi. Dialoglar asarlar mazmuni boyitishda muhim elementlardan biridir. U orqali asarning tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kabi tarkibiy qismlari yanada ta’sirliroq ifodalanadi hamda asarning badiiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar :** G‘afur G‘ulom, qissa, dialog, ijtimoiy tizim, jamiyat, xalq, hajv, yetim argon, jargon, ijod

G‘afur G‘ulom deganda ko‘z o‘ngimizda ham lirik, ham nasriy yo‘lda ijod qilgan inson gavdalanadi. U o‘z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa qaratadi, uning muqarrar g‘alabasiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan she’rlar yaratadi. [2:13] “Shum bola” qissasi, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyalari bilan xalq turmushi va ruhini yaxshi biluvchi mohir nosir ekanligini namoyish etadi.

G‘afur G‘ulom ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan asari – “Shum bola” qissasidir. U bir qarashda avtobiografik asar sifatida tushunilishi mumkin. Aslini olganda esa u haqiqiy tarixiy faktlarga asoslangan, yozuvchi tomonidan to‘qima va fantaziyalar bilan boyitilgan hajviy qissa hisoblanadi.

Barcha voqealar asar bosh qahramoni bo‘lmish Qoravoy markazida sodir bo‘ladi. Qissaning o‘ziga tortadigan jihatlaridan yana biri dialoglardan mohirona foydalaniligidir. Dialoglarda o‘sha davrning ijtimoiy tuzumi, din ulamolarining qilgan ishlar tasvirlangan. “Dialog” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “suhbat” bo‘lib, ikki yoki undan ortiq shaxsning bir biriga qaratilgan nutqi hisoblanadi. Aynan mana shu nutq jarayoni hozirjavoblikni talab qiladi. Bizning hozirjavob qahramonimiz esa “Shum bola”dir. Uning bu jihatini o‘g‘rilar, eshon bilan suhbatlarida bilish mumkin.

“Shum bola” qissasidagi dialoglarda undov so‘zlar, shevaga oid birliklar, argon va jargonlar faol qatnashadi:

- Salom alaykum, mo‘ldagalar, jo‘l bo‘lsin.
- Alay bo‘lsin.
- Ichlaringda imon shariatni biladigan, o‘lik juvadiganlaring bormi?
- Topilib qolar...

Bu domla bilan o‘lik yuvish jarayonidagi suhbat. Bu yerdagi nutqda, nafaqat, shevani balki, “domla” deb ulug‘lab yurgan insonni aslida pul uchun hamma narsaga, hatto o‘lik yuvish darajasigacha borganligini ko‘rishimiz mumkun. O‘sha davrda xalq ishonib yurgan bu kabi “domla” larning salmog‘i, afsuski, anchagina edi.

Ushbu jumllarda biz jargonni ko‘rishimiz mumkun:

Hoji bobo:

- Bolam, anavi “qorasi” qurg‘urdan yeganing yo‘qmi?
- “Qorasi” nima?
- Biz yeydigan “qoraxon” bor-ku, o‘shani aytyapman. [1:136]

G‘afur G‘ulom asarlarida mana shunga o‘xshash dialoglardan ko‘pi mavjud. Biz hozir Hoji bobo va shum bolaning dialoglaridan shuni bilishimiz mumkinki, insonlar u yerga yetishishni orzu qilgan, tabarruk hisoblanmish machitni nashaxonaga aylantirgan, bu yerda foyda ko‘rishni istagan “din peshvolari”ning asl yuzini ochib berilishidir.

Dialoglar ortiqcha badiiy to‘qimalardan holi nutq jarayoni hisoblanadi.

G‘afur G‘ulom o‘z asarlarida bu nutq jarayonidan foydalanishining asosiy sababi ham shu, aslida. U Qoravoy timsolida butun xalqning o‘sha davrdagi holatini hajviy usulda ochib beradi. Kecha - ko‘yda gadoy, tilanchilar ko‘payib ketganligini shum bolaning o‘sha paytda menga o‘xshagan yetimlar ko‘p edi, ular pul topish uchun har narsa qilar edi, - degan so‘zlaridan bilishimiz mumkin.

- Hoy bola, oting nima?
- Nima ishing bor.
- Bitta qovun olsam sherik bo‘lasanmi?
- Sherik bo‘lardim, pulim yo‘q.
- Puling bo‘lmasa, bozorda nima qilib yuribsang?
- Qovun tushuradiganlarga yordamlashaman, sapcha, tuynak berishadi.

Mana oddiy bir yetim bolaning ahvoli. U o‘z qorni to‘yishi uchun ertalabdan kechgacha mehnat qiladi. Evaziga esa “sapcha”, “tuynak” kabi qovunlar bilan maosh oladi. Bizga bu kam tuyulishi mumkin, lekin bola bundan qanoatlanadi.

Bizning qahramonimiz Qoravoy ham shu bola qatoridadir. Faqat u insonlar unga qanday munosabatda bo‘lsa, shunday javob qaytarishi, har bir vaziyatda o‘zining topqirligi, hozirjavobligi bilan farqlanadi. Xalqni qiynab, ularning mehnatidan manfaatdor bo‘lgan amaldorlar, boylarni o‘zining o‘tkir zehni bilan tazirini beradi. Uni Sariboy bo‘lis bilan bo‘lgan suhbatida bu hodisaga guvoh bo‘lishimiz mumkin:

- Hoy, itdan tug‘ilgan, bu qilg‘ing nimasi?!
- Axir, boshida aytgan edim-ku, har zamonda bir yolg‘on gapiraman, deb
- Bu o‘sha yolg‘oningmidi?
- Ha, lekin hammasi emas.
- Nima? Hali butun yolg‘on qilsang meni butkul xonavayron qilar ekansanda,

padaringga la'nat. [3:22]

Boy-ku shum bolani yolg'on gapirishga sababchi bo'lgan, lekin asar davomida eshonning o'g'irlikka undashi, Hoji boboning o'zining noqobil ishlariga aralastirganligini ko'rishimiz mumkin.

Shum bolaning do'stlari, xususan, Omon bilan, boy bir guruh o'g'rilar to'dasi, Hoji bobo va eshonlar bilan bo'lgan dialogik nutqlarida xalq hayoti to'laligicha aks etadi.

Dialogda gap qistirish, luqma tashlash, vosita, tayanch, sharoit, nutq vaziyati, vositalar muhim o'rin tutadi. Dialogda qatnashuvchilardan biri dialogga yetakchilik qilishi zarur.

“Shum bola” qissasidagi dialoglarda bu xususiyatlarning barchasi mavjuddir. Asardagi dialoglarda yetakchilik qilgan obraz esa - Qoravoydir. “Shum bola” qissasidagi hayot tasviridan ortiq bu tarzda yashab bo'lmaydi, jamiyat isloh qilinishi kerak" degan xulosa kelib chiqadi. G'afur G'ulom xalq hayotini “ichdan” tasvirlaydi. Hamma narsani ro'yi-rost bayon etadi. Shu sababdan uning asarlari, jumladan, “Shum bola” qissasi, aslo, eskirmay, kitobxonlar tomonidan sevib o'qib kelinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'afur G'ulom “Shum bola” T: Toshkent. 2021
2. Razzoqova Umida “G'afur G'ulom qissalarida davr va shaxs talqini” ilmiy ishi. T: Toshkent 2018.
3. Adabiyot 6-sinf darslik. T: Ma'naviyat 2017.
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz).